

## **O‘ZBEKISTONDA EKOTURIZM BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYA JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASH ZARURATI**

**Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich**

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasida o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada yosh avlodning ekologik-xuquqiy ta’lim- tarbiyasi ekologik madaniyati va ma’naviyatini zamon talablari asosida takomillashtirib borib ekologik xavfsizlikning hal qiluvchi omillarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari sanaladi. Bu holat insoniyat va tabiat o‘rtasidagi mutanosblik va uning qonuniyatlarini yaxshi bilishi hamda iqtisodiy falsafiy texnik pedagogik va huquqiy yo‘nalishlarni tizimli ravishda o‘zlashtirishni ham taqozo etib mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ishlar xalqaro andozalarga mos xarakterlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Ekoturizm, tabiat muxofazasi, yoshlar, ta’lim va tarbiya, ekologik bilim, milliy g‘urur, ekologik madaniyat.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье перечислены социально-философские аспекты решающих факторов экологической безопасности, повышения экологической культуры и духовности подрастающего поколения исходя из требований времени. Эта ситуация требует хорошего знания баланса между человечеством и природой и ее законами, а также систематического овладения экономическими, философскими, техническими, педагогическими и юридическими направлениями, и работа, проводимая в этом отношении в нашей стране, характеризуется международными стандартами.*

**Ключевые слова:** *экотуризм, охрана природы, молодежь, образование и воспитание, экологические знания, национальная гордость, экологическая культура.*

### **KIRISH**

Butun dunyoda hozirgi vaqtda turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining yuqori daromad beradigan va eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ekologik turizm rekreatsiyaning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishiga aylanayotir. Ekologik turizm turizmlar ichida o‘zining bokira tabiati, yovvoyi tabiati, tabiiy va madaniy landshaftlar bilan muloqotda tabiat qo‘ynida sayohat va faol dam olish bilan bog‘liq bo‘lib, qiziqarli tabiat obyektlari, hodisalari, manzaralari bilan tanishishga

yo‘naltiriladi va bir vaqtning o‘zida tabiat muhofazasini ham o‘z ichiga oladi hamda ko‘p sonli sayyohlarni o‘ziga jalb etadi. Biroq mamlakatimizda ekoturistik faoliyatning ichki va tashqi muhiti xususiyatlari deyarli tadqiq etilmaganligi tabiatdan unumli foydalanishda ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan bugungi kunda ushbu muammoni o‘rganishning ahamiyati va dolzarbligi tobora oshib bormoqda.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi kunda butun dunyoda turizm tizimida ekologik turizmning o‘z o‘rni mavjud. Bu ayniqsa rang barang tabiatga ega quyoshli O‘zbekistondek mamlakat uchun juda ahamiyatlidir. Mamlakatimizda tog‘lar, tog‘ oldi hududlari bilan birga dashti-cho‘llar, sharsharalar, go‘zal manzarali hududlar, muqaddas dinimizga xissa qo‘shgan aziz avliyo va mutafakkirlar qadamjolari qo‘nim topgan muqaddas ziyoratgohlar, ko‘pgina foydali qazilmalar, o‘ziga xos aholi qatlami mavjud.

Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev aynan ekologiya va ekologik tarbiya masalasi bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilishlarida ta’kidlaganlaridek, “Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog‘liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o‘ylab ish tutmasak, ko‘zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz” deb ta’kidlaganlarining o‘zi ko‘rsatib turibdiki ekologiya bu nafaqat bugunimiz, balki kelajagimiz ekanligi ayon bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, jamiyatda ekologik muammolarni hal etish va mamlakatni barqaror rivojlantirish maqsadlariga erishishda ekologik ta’lim va xalq ta’limi tizimi muhim o‘rin tutadi. Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo‘riqxonalar, tog‘li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi. Shu munosabat bilan 2019 yil mart oyida Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizm va ekologik ta’limni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan “2019-2025-yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiyasi” ishlab chiqilib, tasdiqlangan edi.

Zamonaviy olam shunday davrni boshidan o‘tkazyaptiki, yoshlarda ekologik madaniyatni tarbiyalash ta’lim faoliyatining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bolalarda ekologik bilimlar qanchalik kichik yoshdan shakllansa, bunday ta’lim

shunchalik katta samara beradi. Shuning uchun ushbu jarayonni ilmiy tashkil qilish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur.

Bunday holatlarni bartaraf etish maqsadida darsdan tashqari vaqtlarda talabalar bilan tabiatga ekskursiya o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Bunday ekskursiyalarda tabiat muhofazasiga oid turli materiallar to‘plash, tushuntirish ishlari olib borish, talabalarni inson uchun foydali bo‘lgan hayvon va o‘simliklar bilan tanishtirish zarur. Beparvolik oqibatida tabiatga zarar yetishini misollar bilan ko‘rsatish kerak. Talabalarga foydali ko‘chatlar o‘tkazish, qushlar uchun yasama uyalar o‘rnatish esa tabiiy resurslarni ko‘paytirish vositasi ekanligini anglatish kerak.

Tabiatni seva bilishni, undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va ekologik madaniyatning asosi bo‘lib, kishilarda tabiat oldida mas‘uliyatni anglash hissiyotini hosil kiladi. Vatanni sevish va vatanparvarlik tabiatini sevishdan boshlanadi. Binobarin, talabalarda tabiatga haqiqiy muhabbat tuyg‘usini hosil qilmay turib, ularni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Insonning tabiat quchog‘ida bo‘lishi uni ruhan tetiklashtirib, uning mehnat qobiliyati va ijodiy faoliyatini oshiradi.

Tabiat muxofazasi masalasi, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, murakkab, ko‘p qirrali masala bo‘lib, uning ijtimoiy-falsafiy aspekti eng muhim sohalardan biridir.

Tabiatga muhabbat, tabiat go‘zalliklarini sevish va tabiatdan ratsional foydalanish g‘oyalarini bolalikdan singdirib borish va bu tarbiyani o‘rta va oliy maktabda o‘qish jarayonida davom ettirish zarurdir. Faqat shu yo‘l bilangina tabiatga ehtiyotlik bilan munosabatda bo‘lishni insonlar ongiga singdirish mumkin.

Talabalarda tabiatga nisbatan muhabbat va g‘amxo‘rlik tuyg‘ulari oila va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashni yoshlikdan boshlash zarurligini mashhur progressiv pedagoglar o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tishgan, bunga misol XVII asrda yashagan mashhur pedagog Y.A.Komenskiyning "Sezilarli narsalarni rasmlarda ifoda etish" nomli kitobidir. Bu kitob bolalar tushunadigan ensiklopediyadan iborat bo‘lib, bolalarga tabiatni sevishga, uning hayoti va tuzilishi bilan tanishishlariga yordam beradigan shaklda yozilgan.

Oliygozlarda tabiat muhofazasiga oid qisqa metrajli kino-filmlar ko‘rsatib borish ham katta ahamiyatga ega. Tabiat va uning go‘zalligiga oid san’at asarlari, rasmlar ko‘rgazmasi, she’r va hikoyalar ham talabalarda tabiatga yaxshi munosabatda bo‘lish tuyg‘usini uyg‘otadi.

Sayyohik ekskursiya ishlari vaqtida o‘quv ishlari ekologik bilim va tarbiya ishlarida chegaralanmagan imkoniyatlar yaratadi. Buning ustiga ekologik ta’lim va tarbiya ishlarini turizm va ekskursiya ishlarisiz olib borish mumkin emasligi ayon

bo'lib qoldi. Turistik ekskursiya vaqtida sayyohlar va ekskursiya a'zolari faqatgina ko'zlangan ma'lumotlar olibgina qolmasdan, tabiatni muhofaza qilish ishlariga faol qo'shiladilar. O'quv ichiga ma'lumot yig'uv choralari, tabiatni kuzatish, tabiat muhofazasi bilimlarini chuqurlashtirish va tabiatni muhofaza qila olish mahorati kiradi.

Tarbiyaviy choralar ichida alohida ekologik dunyoqarashni shakllantirish va ma'naviy, mehnat huquqiy, fizik, estetik tarbiya kiradi.

Foydalanilayotgan usulga bog'liq ravishda tarbiyaviy tabiatni muhofaza etuvchi choralar ichida, tushuntirish va singdirish, hikoya va suhbat yo'li bilan ishonish, vazifa berish, mukofotlash, o'z-o'zini tarbiyalash kiradi. O'tkazish shakli bo'yicha ular jamoa ommaviy guruh va shaxsiy bo'lishi mumkin.

Oliygo'larda tabiatni muhofaza qilish jamiyatining boshlang'ich tashkiloti tashkil etilib, unga talabalar, o'qituvchilar a'zo bo'lib kirishlari lozim. Ta'lim muassasalarida ekologik markazlar, ekologiya klublari tashkil etish, muntazam ravishda ekofestivallar hamda tanlovlar o'tkazish yaxshi samara beradi. Tabiat muxofazasiga bag'ishlangan maxsus kechalar o'tkazilishi, ularda "Tabiatni muxofaza qilish", "Ekoturizm", "Ekota'lim", "Ekotarbiya", "Jamiyat va unda ekologiyaning roli", "O'zbekiston qo'riqxonalarini va ularning faoliyati" kabi mavzularida dokladlar, suxbatlar, tadbirlar o'tkazilib turilishi kerak.

## **XULOSA**

Turistik ekskursiya tashkilotlarida va marshrutlarda amalga oshiriladigan tashviqot tabiatni muhofaza qilish choralariga og'zaki (ma'ruzalar), suhbatlar, ma'ruzalar, badiiy kechalar, jurnallar, tashviqot, radiotashviqot va boshqa yig'in shakllari kiradi.

Xulosa qilib aytganda, ekoturizm bu insonni, jamiyatni, oilani, farzandlarni tabiiy muhit bilan chambarchas bog'lab turadi, tabiatga muhabbat hissini tarbiyalaydi, uni muhofaza etishga rag'bat uyg'otadi, vatanga muhabbat hissini va uning kelajagiga daxldor ekanligiga mas'uliyat bilan yondashishni tarbiyalaydi.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. N.D. Andreyeva, V.P.Solomin, T.V.Vasilyeva "Теория и методика обучения экологии" oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik «Akademiya» Nashriyot markazi, 2009. - 208 b. 2. Ilmiy-metodik jurnal «География и экология в школе 21 века» №5 2006 y., №10 2006 y., № 4 2009 y.

- 
3. Xaitboyev, R. Ekologik turizm / R. Xaitboyev. — Samarkand, 2018. — 248 s.
  4. A.Y.Aleksandrova. Международный туризм. Учебник. М.Аспект press, 2002 г, 470 с.
  5. Chuykova L.Y., Sigovatova M.V.”Взаимосвязи человека и природы” (oʻrta maktabning 6-sinf oʻquvchilari uchun oʻquv qoʻllanma). 2-nashr. Astraxan, 2001. - 232 b.
  6. Chuykov Y.S., Chuykova L.Y., Sigovatova M.V. “Основы экологических знаний” (oʻrta maktabning 7-sinf oʻquvchilari uchun ekologiyadan oʻquv qoʻllanma). 2-nashr. - Astraxan, 2002. - 212 b.
  7. Tabiat muxofazasi va ekologiyasi. Toshkent Oʻqituvchi 1986 yil.
  8. Islomova, R. A. Проблемы развития экологического туризма / R. A. Islomova. — Tomsk, 2014.